

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI**G`ulomova Zahro Davlatjon qizi***Nizomiy nomidagi O`zbekiston Milliy pedagogika universiteti**Tarix fakulteti II bosqich talabasi**(+998947463353)**zahrogulomova40gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Konstitutsiya atamasiga ta`rif beriladi, u haqida qisqacha fikrlar aytiladi va Konstitutsiya turalari haqida ham ma`lumot berilgan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilishi, undagi bo`limlar, boblar, moddalar haqida gapiriladi. Konstitutsiyadagi o`zgarishlar haqida, yangi 2023-yilda qabul qilgan Konstitutsiya haqida ham ma`lumotlar qayd etiladi. Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni deb aytiladi.

Tayanch so`zlar: Konstitutsiya, Davlatning bosh qonuni, 1992-yil 8-dekabr, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan, aralash konstitutsiyalar, 12-chaqiriq, 11-sessiya, 1990-yil 20-iyun, 2023-yil 1-may.

Аннотация: Ушбу мақолада Конституция атамасига тариф берилади, у хақида қисқача фикрлар айтилади ва Конституция туралари хақида ҳам маълумот берилган Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабуль қилиши, ундаги бо`лимлар, боблар, моддалар хақида гапирилади. Конституция хақида узгаришлар хақида, янги 2023-йилда қабул қилган Конституция хақида ҳам маълумотлар қайд этилади. Конституция Давлатнинг Асосий Қонуни Деб Айтилади.

Таянч сўзлар: Конституция, Давлатнинг бош қонуни, 1992 год, 8 декабрь, кодекслаштирилган, кодекслаштирилмаган, аралаш конституциялар, 12 чакирик, 11 сессия, 1990 год, 20 июня, 2023 год 1-мая.

Annotation: This article defines the term Constitution, briefly discusses it, and discusses the types of Constitutions. It also discusses the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, its sections, chapters, and articles. It also provides information about the changes in the Constitution and the new Constitution adopted in 2023. The Constitution is said to be the fundamental law of the state.

Keywords: Constitution, Basic Law of the State, December 8, 1992, codified, uncodified, mixed constitutions, 12th convocation, 11th session, June 20, 1990, May 1, 2023.

Konstitutsiya – davlatning eng oliy huquqiy hujjati bo`lib, jamiyat hayotini tartibga soluvchi asosiy qoidalarning majmuasini o`zida mujassam etadi. U jamiyatdagi barcha fuqorolarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi, davlat

hokimiyati tizimining tuzilishi hamda uning o'zaro muvozanatini belgilab beradi. Har bir xalqning konstitutsiyasi o'sha millatning tarixiy tajribasi, siyosiy qadriyatlari va ijtimoiy taraqqiyot darajasining ifodasidir. Shu bois konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki davlatning mustahkamligi, fuqorolarning farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy poydevor sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "o'rnatish", "belgilash" degan ma'nolarni anglatadi. U davlatning asosiy bosh qonuni hisoblanadi. Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqorolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimi, advokatura, prokratura sohalaridagi bilimlarni belgilab beradi.

Konstitutsiya demokratik davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlar. Konstitutsiya o'zining 3 turdagi shakli mavjud, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'lingan.

Kodekslashtirilgan konstitutsiya – konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agarda aynan shunday masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan bilan tartibga solinsa, u holda kodekslashtirilmagan konstitutsiya hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharhlarni ham o'z ichiga olgan holda yoritiladi ya'ni qisman holda yozilgan bo'ladi. O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozi malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonida ratifikatsiyalash) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan siyosiy – huquqiy hujjat bo'lib, u 1992-yil 8 – dekabrda 12-chaqiriq, O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiya qabul qilingan 8-dekabr sanasi O'zbekistonda umumxalq bayrami sifatida - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilingan. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan, mamlakat Oliy kengashining 2-sessiyasida qabul qilingan. Ushbu sessiya prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda

jamoat birlashmalari, korxonalar va xo'jalikning rahbarlari, huquqshunos olimlar va mutaxassislar kirgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 15 marta o'zgartirish kiritilgan.

- 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi 1-qismidagi „150 nafar deputatdan“ degan so'zlar „deputatlardan“ degan so'z bilan almashtirildi;
- 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2007-yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan;
- 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi birinchi qismiga o'zgartirish kiritilgan;
- 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan;
- 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 93, 108 va 109-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi „ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini“ degan so'zlar „raisni (oqsoqolni)“ degan so'zlar bilan almashtirilgan;
- 2019-yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalardagi „Milliy“ degan so'z „Davlat“ degan so'z bilan almashtirilgan;
- 2019-yil 5-martda qabul qilingan Qonunga asosan 79, 93 va 98-moddalarga o'zgartirishlar kiritilgan;
- 2019-yil 4-sentabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o'zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek:

2021-yil 8-fevral kuni „O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar

kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. O'zgartirishga ko'ra, O'zbekistonda sud tizimi quyidagilardan iboratligi belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi
- O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi
- harbiy sudlar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari;
- Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- Jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari;
- tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- tumanlararo ma'muriy sudlari¹

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-may sanasidan kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning birinchi moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. "Yangi konstitutsiya 65 foizga yangilangan"². O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi Muqaddima, 6 ta bo'lim, 27 bob va 155 moddadan iborat.

1-bo'lim (I-IV bob, 1-18-moddalar) "Asosiy prinsplar" deb nomlangan.

2-bo'lim (V-XI bob, 19-64-moddalar) "Inson va fuqorolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb ataladi.

3-bo'lim (XII-XV bob, 65-82-moddalar) "Jamiyat va shaxs" deb ataladi.

4-bo'lim (XVI-XVII bob, 83-90-moddalar) "Ma'muriy- hududiy va davlat tuzilishi" deb nomlangan.

5-bo'lim (XVIII-XXVII bob, 91-153-moddalar) "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" deb nomlangan.

6-bo'lim (154-155-moddalar) "Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi" deb ataladi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya – bu shunchaki qonunlar to'plami emas, balki davlat va jamiyat hayotining ma'naviy-huquqiy mezon, xalqning o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan irodasining yorqin ifodasidir. Unda insonning sha'ni, qadr-qimmat, erkinligi va farovon turmush kechirish huquqi oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Konstitutsiya jamiyatning barcha sohalarida huquqiy tartibot va barqarorlikni ta'minlab, fuqorolarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga zamin yaratadi. 2023-yilda yangilangan Konstitutsiya esa zamon talablariga javob beradigan demokratik islohatlar yo'lida yangi bosqichni boshlab berdi desak mubolag'a

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasig o'zgartirishlar kiritildi. Bugun.uz, 2021-yil 9-iyul.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Lex.uz.

bo`lmaydi. Unda inson huquqlarini himoyalashning zamonaviy mexanizmlari, kuchlar bo`linishi prinsipi, mahalliy boshqaruvning mustahkamlanishi, ijtimoiy davlat g`oyalari va farovonlikka qaratilgan normalar o`z ifodasini topdi. Bu esa erkin, adolatli va rivojlangan jamiyatni barpo etish yo`lida mustahkam huquqiy kafolat bo`lib xizmat qiladi. Shunday qilib Konstitutsiya – xalq farovonligi, davlat mustahkamligi va inson erkinligining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiluvchi eng oliy huquqiy poydevordir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasiga o`zgartirishlar kiritildi. Bugun.uz, 2021-yil 9-iyul.
2. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Lex.uz.
3. Kun.uz.
4. <https://uz.wikipedia.org>.